

KOGNITIV LINGVISTIKADA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING KONSEPTUAL O'RNI

Go'zal Qo'ziboyeva

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21909405>

Annotatsiya. Ushbu maqolada antroposentrik paradigm doirasida shakllangan tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlaridan biri bo'lgan kognitiv tilshunoslikda frazemalarga oida tadqiqotlar va ularning konseptual o'rni atroflicha muhokama qilindi. Bu tadqiqotlar davomida konsept, madaniy kod va madaniy birliklarning ahamiyati ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: frazema, frazeosemantik maydon, konsept, konseptosfera, lingvokulturologiya, badiiy tahlil, lingvistik tahlil, turkologiya, madaniy kolorit.

Annotation. This article provides a comprehensive discussion of research on phrasemes and their conceptual role within cognitive linguistics—one of the modern branches of linguistics that emerged within the framework of the anthropocentric paradigm. The study also examines the significance of concepts, cultural codes, and cultural units.

Keywords: phrasal verbs, linguoculturology, artistic analysis, linguistic analysis, Turkology, cultural color.

Kirish. Hozirgi zamon lingvistikasida til va madaniyatning o'zaro munosabati masalasi, konsept tushunchasi va uning bag'rida lingvomadaniy tahlilning metod va usullari tadqiqi amalga oshirilmoqda. Tilshunoslikda til birliklarini lingvopragmatik, lingvokognitiv, antropotsentrik paradigma kabi yangi ilmiy konsepsiyalar asosida tadqiq etish ustunlik qilmoqda. Til va madaniyat munosabatini olamning lisoniy manzarasi nuqtai nazaridan o'rganish, milliy mentallikni anglash masalalarini tahlil qilish ham tilshunoslik uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi¹.

Til birliklarining lingvokulturologik tadqiqi jarayonida va natijasida ularning mohiyati to'laroq ochiladi, amaliy ahamiyati oshib boradi. "Frazelogik birliklar u yoki bu xalqning ma'naviy qadriyatlari, milliy tafakkuri, hayot tarzi hamda urf-odatlarini namoyon etadigan til hodisasidir". O'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari, shevalari, tarixiy taraqqiyoti, uning istiqboli bilan bog'liq muammolarni aynan lingvokulturologik nuqtai nazardan tadqiq etish tilimizning jahon tillari orasidagi munosib o'rnini belgilashda o'ziga hos mohiyat kasb etadi².

Tilshunoslikda inson faoliyatini o'rganishga yo'naltirilgan antropotsentrik tadqiqotlar yuzaga kelmoqda. Modomiki, frazeologik birliklar inson faoliyati bilan bog'liq narsa-hodisa va tushunchalarni ifodalar ekan, shunday hodisalarni emotsional-ekspressiv, obrazli ifodalash ehtiyoji asosida shakllanar ekan, ularni til va madaniyat munosabatida tadqiq etish yanada dolzarblik kasb etadi. Mazkur maqoladagi til materiallari o'zbek milliy- madaniy dunyoqarashining frazeologik sathdagi aspektlarini tahlil va tavsif etishga yo'naltirilgan. Til u yoki bu millat madaniyatining elementi, qismi, fakti, omili, shakli, manbasi, saqllovchisi, xotirasi, translyatori, mavjudlik sharti hisoblanadi. Lingvomadaniyatshunoslik integrativ mustaqil fan sohasi sifatida olamning lisoniy manzarasi va til shaxsining milliy o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi hamda yuzaga chiqaradi.

¹ Маматов А. Фразеологизмларнинг антропоцентрик лингвомаданий тадқиқи. –Жиззах. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари.-, 2019 йил, 65-бет.

² Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув қўлланма). Тошкент, «Наврўз» нашриёти, 2019. 11-бет

Tilshunos V.A.Maslova lisoniy madaniyatshunoslikning predmetini: 1) noekvivalent leksikava lakunalar; mifologik lisoniy birliklar; 3) til paremiologik fondi; 4) tilfrazologik fondi; 5) etalon, stereotip, simvollar; 6) til metafora va obrazlari; 7) turli tillar uslubiy tarzi; 8) nutqiy xulq; 9) nutqiy etiket maydoni³ kabi turlarga ajratib yanada aniqlashtiradi. Frazologizmlar millatning mahsuli sifatida milliy madaniy manzarani kognitiv pragmatik aspektlarda bayon etadi.

Lisoniy konsept va uning lingvomadaniy aspektlari esa madaniy-lisoniy aloqalarning ko'p qirrali jihatlarini ifoda etadi.

Tahlil. Kognitiv tilshunoslik atamasining mazmuni inglizcha "cognitive – bilishga oid" so'zi bilan bog'liq. (Qiyoslang: "cognize – bilmoq, anglamoq, tushunmoq", "cognition – bilish").

Ma'lumki, dunyoni, voqelikni bilish, uni idrok etish oddiy hodisa emas. Ayrim hollarda bilishni to'g'ridan to'g'ri fahmlash, tushunish harakatlari bilan bog'lab qo'yishadi. Ammo, hayvonlarga ham qisman (oddiy shaklda bo'lsa ham) fahmlash, tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyati xos ekanligi ma'lum. Shu sababli bilish faoliyati haqida gap ketganda, faqatgina cogitation (latincha), ya'ni "aql, tafakkur" hodisasini tasavvur qilish bilan cheklanmasdan, balki cogitatorium – tafakkur faoliyati shaxsini hamda bu faoliyat bilan bog'liq bo'lgan barcha turdagi nomenal (ijtimoiy, madaniy, lisoniy) hodisalarni ham inobatga olish kerak bo'ladi⁴. Shuni unutmaslik lozimki, tafakkurning o'zi insonning maqsadli faoliyati natijasida hosil bo'lib, u insonlar o'rtasidagi muloqot jarayonida voqelikka nisbatan bildirilayotgan faol munosabatning ifoda topishidir. Kognitivdan keyin konsept to'g'risida fikr yuritsak, o'zbek olimlaridan biri O'.Yusupov konseptni quyidagicha ta'riflagan: "Konsept – bu tashqi yoki ichki dunyodagi biror narsa yoki hodisa haqidagi ongimizdagi bilimlar majmuasidir, u haqidagi obrazlar va unga bo'lgan ijobiy, salbiy yoki neytral baholashdir"⁵. Stepanovning fikricha, konsept tilshunoslikda ikki xil ma'noda tushuniladi: 1) ma'naviy madaniyatning kalit so'zi; 2) so'z paydo bo'lishiga turtki bo'luvchi birlamchi tasavvur. Bu ikki fikr bir-birini to'ldirib, bir butunlikni hosil qiladi.⁶ Ye.S.Kubryakova esa Z.Djekendoffning fikriga tayangan holda konsept – bu inson tafakkuridagi olam tasvirining tilda aks etishi, degan g'oyani ilgari suradi⁷. N.D. Arutyunovanning ta'limotiga ko'ra konseptlar inson va olam o'rtasida xususiy va umumiy vositachi bo'lib xizmat qiluvchi ma'lum bir madaniy qatlamni hosil qiladi⁸. Vejbitskaya qarashlarida konsept – etnosemantik xususiyatlarga ega bo'lgan, turli xil xalqlar madaniyatining o'xshash va farqli jihatlarini til orqali chog'ishtirish uchun qo'llanadigan vositadir⁹. Bizning fikrimizcha konsept har bir millatning o'ziga xos tushunchasi bo'lib, dunyoni anglashdagi tafakkur ramzi, bilimlar majmui, o'y-qarash, nuqtayi nazari, ularning og'zaki va yozma nutqida namoyon bo'lgan va shu bilan birga uning adabiyotida ham aks etgan tushunchalar to'plamidir.

³Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие. М.: 2001. 37 с.

⁴ Safarov Sh. "Kognitiv tilshunoslik", Ilmiy risola – Jizzax: "Sangzor" nashriyoti, 2006. – B 10

⁵ Юсупов Ў.Қ. Тилшunoslikдаги янги йўналишлар ва уларда ишлатиладиган айрим ислохотлар// Филология масалалари. – Т.: 2011. – Б.10.

⁶ Данькова Т.Н. Концепт «любовь» и его словесное воплощение в индивидуальном стиле А. Ахматовой. Канд. дисс. филол.наук. – 2000.

⁷ Кубрякова Е. С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира / РАН ИЯ. М.: Языки славянской культуры. – 2004

⁸ Арутюнова В.Д. Язык и мир человека. 2-е изд., испр. – М.: 1999. – 896 с.

⁹ Вежицкая А. Семантика, культура и познание: общечеловеческие понятия в культуроспецифичных контекстах. Oxford: Oxford University Press, 1992. – p.3–22. – 206 с.

Bugungi kunda tilshunoslikda paydo bo'lgan antroposentrik paradigma inson o'zini qurshab turgan olamni va o'zini o'zi bilish orqali uning lisoniy tafakkurida millatga, xalqqa tegishli madaniy kod yashashini asoslab berdi. Markazida inson turuvchi va uning nutqiy shakllanishi, tafakkuri, mintaletiteti orqali o'sha xalqqa tegishli konseptlarning mavjudligi sababli tilshunoslikda zamonaviy tilshunoslik sohaları butun jahon tilshunosligiga kirib keldi.

Bu XX asr oxirida tilshunoslikning rivojlanishi uning konseptual va metalisoniy apparatiga olam manzarasi terminining kirib kelishi bilan alohida ahamiyat kasb etdi. Konsept ham tafakkur birligi va uning asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma'no umumlashmasi yotadi. Konseptning shakllanishi individual obraz tug'ilishidan boshlanib, lisoniy birlikning paydo bo'lishi bilan tugaydi. Taniqli faylasuf va psixolog Jerri Fodor voqelikning ongda in'ikos etishi va bu in'ikosning tafakkurda "qayta ishlanish" jarayonini o'rganayotib, bu jarayonni "tafakkur lisoni"ga o'xshatadi. Chunki "har qanday mantiqiy tasavvur harakati ma'lum ko'rinishdagi strukturaga ega bo'ladi hamda bu struktura tabiiy til birligining sintaktik shakli takroriga ishoradir".¹⁰

Xulosa. Botiniy nutq jarayonida kontsept, birinchidan, ma'lum mazmun shaklini olsa, ikkinchidan, lisoniy belgi tanlovi bosqichiga tayyorgarlik ko'radi. Xuddi shu hozirlik lisoniy moddiylashuvdan oldingi harakatlar vositasida nominativ birligining denotativ asosini mazmunan boyitadi. Bu bilan lisoniy tanlov imkoniyati ham kengayadi. Lisoniy tanlov esa alohida ko'rinishdagi lisoniy tafakkur faoliyati natijasidir. Bu faoliyatning ko'chishi til o'zlashtirilishi vanutqiy qobiliyat hosil bo'lishi jarayonlariga mos ravishda kechadi. Ma'lumki, inson til va moddiy olamni bir xil uslubda hamda bir xil yo'nalishda o'zlashtiradi. Moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet – hodisalar haqida tushuncha tug'ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namuna – kontsept sifatida shakllanib, moddiy nom olishini taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Маматов А. Фразеологизмларнинг антропоцентрик лингвомаданий тадқиқи. – Жиззах. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари. -, 2019 йил, 65-бет.
2. Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув қўлланма). Тошкент, «Наврўз» нашриёти, 2019. 11-бет
3. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие. М.: 2001. 37 с.
4. Safarov Sh. "Kognitiv tilshunoslik", Ilmiy risola – Jizzax: "Sangzor" nashriyoti, 2006. – B 10
5. Юсупов Ў.Қ. Тилшуносликдаги янги йўналишлар ва уларда ишлатиладиган айрим ислохотлар// Филология масалалари. – Т.: 2011. – Б.10.
6. Данькова Т.Н. Концепт «любовь» и его словесное воплощение в индивидуальном стиле А. Ахматовой. Канд. дисс. филол.наук. – 2000.
7. Кубрякова Е. С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира / РАН ИЯ. М.: Языки славянской культуры. – 2004
8. Арутюнова В.Д. Язык и мир человека. 2-е изд., испр. – М.: 1999. – 896 с.

¹⁰ Safarov Sh. "Kognitiv tilshunoslik", Ilmiy risola – Jizzax: "Sangzor" nashriyoti, 2006. – B 92

9. Вежбицкая А. Семантика, культура и познание: общечеловеческие понятия в культуроспецифичных контекстах. Oxford: Oxford University Press, 1992. – p.3–22. – 206 с.
10. Safarov Sh. “Kognitiv tilshunoslik”, Ilmiy risola – Jizzax: “Sangzor” nashriyoti, 2006. – B 92